



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 20-dekabr, № 271 (8614)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA QATOR MUHIM TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy 19-dekabr kuni Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofotni tantanali topshirish marosimida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.



Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Prezidentimiz kutib oldi.

Dastlab "Tashkent city" xalqaro ishbiarmonlik markazi hududida xalqaro hamjamiyatning korruptsiyaga qarshi

kurashish borasidagi sa'y-harakatlarini ifodalovchi monumentning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tantanal marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx

Tamim bin Hamad Ol Soniy ishtirok etdi.

Tadbirida BMT Bosh kotibining yordamchisi Aleksandr Zuyev va xorijiy mamlakatlarning rasmiy shaxslari ham qatnashdi.



Kafti ochiq qo'l ko'rinishida metalldan ishlangan ushbu o'n ikki metrik kompozitsiya halollik, pok amal va niyatlarni, korruptsiyaga nisbatan mutlaq toqatsizlikni, dunyoning barcha mamlakatlarini unga qarshi kurashishda

birlashishga chaqiriqni anglatadi. Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy Toshkent shahridagi Kongress markazida Korruptsiyaga

qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofot bilan taqdirlash marosimida ishtirok etdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA YUKSAK XALQARO MUKOFOTNI TOPSHIRISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Hurmatli Amir A'lo Hazratlari!
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Xonimlar va janoblari!

Bugun azim Toshkent shahrida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofot asoschisi, qadrii birodarim Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy A'lo Hazratlariga hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining G'iyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasiga chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Fursatdan foydalanib, anjumanda ishtirok etayotgan qatariik do'stlarimizni va ular siyosida ushbu mamlakat xalqini kecha keng nishonlangan Mustaqillik bayrami bilan samimiy muborakbod etaman.

Ta'kidlash o'rinliki, Amir A'lo Hazratlarining oqilona rahbarligi ostida so'nggi yillarda Qatar Davlati yangilanish ruhi bilan yashamoqda, mamlakatda katta o'zgarishlar amalga oshirilyapti, olamshumul va buyuk yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Bunga betakror Dohaga tashrifim chog'ida o'zim shaxsan amin bo'ldim.

Yuksak saviyada o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon chempionati, Kam rivojlangan davlatlar bo'yicha xalqaro konferensiya va "Ekspo Doha — 2023" butunjahon ko'rgazmasi, ko'plab xalqaro tashabbuslar Qatarning global hamkorlik va diplomatiya markaziga aylanib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu o'rinda, davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar bizning faol muloqotlarimiz natijasida mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganini alohida mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman.

Biz birgalikda katta loyihalarni boshladik. Bugungi tadbir aynan yurtimizda o'tkazilayotgani esa maqsadlarimiz uyg'un va hamohang ekanining yorqin ramziy ifodasidir.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Albatta, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyodagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida global mukofotning ta'sis etilgani va uni topshirishga bag'ishlangan marosimlar barcha qit'alarda o'tkazib kelinayotgani yuksak e'tirofga sazovordir. Zero, korruptsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir.

Ushbu nufuzli mukofot orqali korruptsiyaga qarshi kurashishga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan jahondagi eng faol shaxslarning e'tirof etilishi bundan roppa-rosa 20-yil avval qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi talablarini hayotga ichkil va to'liq tatbiq etishga xizmat qiladi.

Hurmatli xonimlar va janoblari!

Bashariyat tarixiga nazar solsak, korruptsiya illati hatto eng qudratli va eng kuchli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelganiga va to'liq parokanda qilganiga guvoh bo'lamiz.

Korruptsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to'sqinlik qiladigan xatarli tahdididir va u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi rejaralarimizga ham jiddiy putur yetkazadi.

Tahillarga ko'ra, hozirda korruptsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion AQSH dollariga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda. Ammo, men bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korruptsiya natijasida ko'rilayotgan real zararining aniq hajmini to'liq ifoda eta olmaydi, deb hisoblayman. Eng yomoni —

jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'lamini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.

Mazkur o'tkir muammoning oqibatlarini chuqur anglagan holda, biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqdami.

Korruptsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy va institutsional islohotlarni tizimli amalga oshirmoqdami. Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunni qabul qilib, maxsus vakolatli Agentlikni tashkil etdik. Hukumat faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash va mas'uliyatini oshirish, byurokraziyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni amaliyotga keng joriy etyapmiz. Xususan, barcha davlat idoralarida kompayens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlari to'liq raqamlashtirildi.

O'zbekiston 2021-yilda Xalqaro Ochiq ma'lumotlar xartiyasiga a'zo bo'ldi. Mamlakatimiz Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va Egmont guruhlari, boshqa ko'plab platformalarda samarali ishtirok etib kelmoqda. G'arbiy va Markaziy Osiyo davlatlarining aktivlarni qaytarish tarmog'ining Kotibiyati vazifasini bajarmoqda.

Har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksilkorruptsiya forumi o'tkazib kelinmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimiz "Transparency International" indeksida 42 pog'onaga ko'tarildi va bu borada mintaqamizda eng yuqori o'rinni egallamoqda. 2030-yilga qadar mazkur reytingdagi o'rnimizni yana 50 pog'onaga yaxshilash maqsadini ko'zlaganmiz. "Open Data Inventory" reytingida esa joriy yilda 30-yilga ko'tarildik. Ochiq ma'lumotlar yalbari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rindan joy olgan.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Demokratik islohotlar ortga qaytmas tus

olgan Yangi O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida ham katta reja va vazifalarni o'z oldimizga qo'yganimiz.

Bu mas'uliyatli va muvosiiz kurash yo'lida Birlashgan Millatlar Tashkilotining G'iyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi va barcha xalqaro hamkorlarimiz bilan birgalikda bor kuchimizni safarbar etishga tayyormiz.

Birinchidan, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqib, hayotga tatbiq etamiz. Davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, sohaning huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga alohida urg'u beramiz.

Ikkinchidan, korruptsiyaga qarshi kurashdagi mintaqaviy va global tashabbus va yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlaymiz va ularda faol qatnashamiz. Bu borada o'tgan oyda Toshkentda ishga tushgan Korruptsiyaga qarshi kurashish konvensiyasining Mintaqaviy platformasidan keng foydalanmoqchimiz.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlarini faol jalb etgan holda, o'zaro tajriba almashish va muloqotlarni kuchaytirish, ilmiy izlanishlar olib borish maqsadida Korruptsiya muammolari bo'yicha mintaqaviy tadqiqot markazini tashkil etishni taklif etaman.

Uchinchidan, biz Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining xorijiy turdosh muassasalar bilan yaqin hamkorligini kuchaytirish orqali uning salohiyati va imkoniyatlarini yanada oshiramiz. Eng ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan yangi mexanizmlar tatbiq qilindi, jumladan, korruptsiya holatlari bo'yicha "dastlabki o'rganish" — korruptsiya surishtiruv instituti joriy etiladi.

To'rtinchidan, ongi va qalbi bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish ustuvor vazifamizdir. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korruptsiyaga

qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi dasturini O'zbekistonda keng joriy etishdan manfaatdormiz.

Beshinchidan, korruptsiyaga qarshi kurashishdek murakkab jarayonlarda eng oldingi saflarda borayotgan ommaviy axborot vositalarining o'rini alohida qadrlaymiz.

Shu ma'noda, bizning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jurnalistlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish va ular ta'sirini yanada oshirish uchun Global media forumni o'tkazish taklifimizni sizlar qo'llab-quvvatlayisiz, deb ishonamiz.

Hurmatli do'stlar!

Mazkur xalqaro mukofot bilan taqdirlangan barcha shaxslar ilk bor bir joyga jamlangani va ular ishtirokida tashkil etilayotgan G'oliblar uchrashuvi ham katta ahamiyatga molik voqeelikdir.

O'z taraqqiyot yutuqlarini va foydali sarmoyalarini dunyo xalqlari bilan baham ko'rayotgan, korruptsiyaga qarshi kurashda g'ayrat va shijoat ko'rsatayotgan Qatar Amirining global darajadagi sa'y-harakatlari barchamizning egzu intilishlarimiz bilan birlashib, albatta, o'zining ulkan ijobiy natijalarini beradi.

Ushbu mavzuga bag'ishlab o'rnatilgan monumentdagi korruptsiyani to'xtatish uchun ko'tarilgan ochiq qo'llar kabi bugungi anjumanda ishtirok etayotgan, adolat yo'lidagi qat'iyatli va tolmaz qahramonlarimiz qo'llarini pok qalb va vijdon amrimiz bilan mahkam tutamiz. Olib borayotgan sharaflari ishlarimizda sizlar bilan doimo birgamiz.

Fursatdan foydalanib, nufuzli mukofotning barcha sovrindorlarini chin qalbidan qizg'in tabriklayman.

Anjumanimizda qatnashayotgan xorijiy mehmonlarimizga yana bir bor chuqur tashakkur izhor etaman.

Barchangizga mas'uliyatli faoliyatingizda kuch-g'ayrat, yangi muvaffaqiyatlar, baxt va omadlar yor bo'lishini tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

AKS SADO

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA YUKSAK XALQARO MUKOFOT TAQDIMOTINING TOSHKENTDA O'TKAZILISHI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING SAMARALI NATIJALARI DUNYODA KENG E'TIROF ETILAYOTGANIDAN DALOLATDIR

XORIJIY EKSPERTLAR VA XALQARO MUKOFOT LAUREATLARI O'ZBEKISTON — QATAR SAMMITI VA QATAR DAVLATI AMIRI TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA YUKSAK XALQARO MUKOFOT BILAN TAQDIRLASH MAROSIMI HAQIDA.

19-dekabr kuni Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy amaliy tashrif bilan O'zbekistonga keldi va Toshkentda o'zining tashabbusi bilan ta'sis etilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofot bilan taqdirlash marosimida qatnashdi.

Mintaqamiz uchun misli ko'rilmagan voqea sifatida e'tirof etilayotgan mazkur global tadbir xorijiy ekspert doiralari vakillarining yuqori qiziqishiga sabab bo'layotir. Shuningdek, xalqaro mukofotning yangi laureatlari ham o'z fikrlarini bildirmoqda.



OLIIY MAJLIS SENATIDA

MUHOKAMA MARKAZIDA – O'ZARO ALOQALAR ISTIQBOLLARI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva 19-dekabr kuni Qatar Davlati Sho'ro Kengashi (Maslahatlashuv kengashi) bosh kotibi Ahmad Nosir al-Fadala bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ta'kidlash lozim, keyingi yillarda muntazamlik kasb etib borayotgan oliy darajadagi muloqotlar ikki tomonlama munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim o'rinni tutmoqda.

Xususan, Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning joriy yil 5-6-iyun kunlari yurtimizga hamda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 1-2-oktabr kunlari Dohaga davlat tashriflari ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichni boshlab berdi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Qatar hamkorligining keng yo'nalishlari, shuningdek, parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlash istiqbollari ko'rib chiqildi.

Mamlakatlarimiz o'rtasida o'zaro savdo va investitsiyalar hajmi ortmoqda, yirik qo'shma loyihalar tayyorlanib, amalga oshirilyapti. Tomonlar shunday bo'lsa-da, iqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, o'zaro savdo aylanmasi hajmi ikki davlat imkoniyatlarini to'liq aks ettirmayotgani, uni bir necha barobarga oshirish uchun salohiyat va imkoniyatlar yetarli ekanini ta'kidlab o'tdi.

Bu borada ikkala davlatning mushtarak sa'y-harakatlarini birlashtirishda parlamentlararo aloqalarni yanada jadallashtirish va yangi bosqichga olib chiqish zarurligi qayd etildi.

Buning amaliy mexanizmi sifatida o'zaro tashriflar muntazamligini ta'minlash, parlamentlararo hamkorlikka oid tegishli hujjat loyihisini tezroq ishlab chiqib, tasdiqlash taklifi ilgari surildi.

Uchrashuv yakunida turli xalqaro tashkilotlar va parlament tuzilmalari doirasida ham o'zaro muloqotni rivojlantirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".



